

KONSTITUTSIYA-ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Toxtaonova Gulniso Shavkatbek qizi

O'zDK huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutining Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi muxandisi
Ilmiy rahbar: Ilmiy ishlar bo'yicha Prorektor
Muxamedova Feruza Nurmaxmatovna

Annotatsiya: “Konstitutsiya- erkin va farovon hayot garovi” mavzusidagi maqolada O'zbekiston Konstitutsiyasining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy jihatlarini tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan Yangi Konstitutsiya haqida va uning istiqbollari to'g'risida so'z yuritilib, Konstitutsiyaning xalqimiz ravnaqi va farovonligi yo'lidagi ulkan ahamiyati haqida so'z boradi.

Аннотация: В статье «Конституция – залог свободной и благополучной жизни» анализируются социально-политические и экономические аспекты Конституции Узбекистана. Рассматривается Новая Конституция Республики Узбекистан, ее перспективы, а также её большое значение для развития и благополучия нашего народа.

Annotation: The socio-political and economic aspects of the Constitution of Uzbekistan are analyzed in the article “The Constitution is the guarantee of a free and prosperous life.” The new Constitution adopted in the Republic of Uzbekistan, its prospects, as well as the great importance of the Constitution for the development and well-being of our people are discussed.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Huquqiy davlat, qonun, farovon hayot, xalq, Ijtimoiy adolat, fuqarolar erkinligi, modda.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, закон, комфортная жизнь, народ, социальная справедливость, свобода граждан, общество.

Key words: Constitution of the Republic of Uzbekistan, Rule of law, law, comfortable life, people, Social justice, freedom of citizens, society.

Ma'lumki, har bir davlatning shakllanishida Konstitutsiyaning o'rni beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8- dekabrda qabul qilingan bo'lib, shu kundan e'tiboran, 8- dekabr umumxalq bayrami deb e'lon qilindi. Har yili mazkur sana bayram sifatida keng nishonlanadi.

Har bir davlat o'z taraqqiyot yo'lini tanlar ekan, eng muhim maqsad va vazifalarini belgilab oladi. Mamlakatimiz mustaqilligining ilk davrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham xalqimizning xohish-irodasi, inson huquq va manfaatlarini, davlat tuzilishi o'z ifodasini topgan. Bosh qomusimiz, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, yurtimiz fuqarolari tengligining kafolatlanishi qayd etilgan va zamonaviy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratilgan. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. Konstitutsiya xalqning siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo'lmasdan, erkin va ozod, tinch osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo'lib kelmoqda. Konstitutsiya mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega va to'g'ridan to'g'ri amal qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 17- oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 32 yilligini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash uchun

“Konstitutsiya-erkin va farovon hayot garovi” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy- amaliy hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar samarali tashkil etilmoqda.

Konstitutsiya davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan huquqiy hujjatdir. Yaratilayotgan boshqa qonunlar konstitutsiyaviy me’yorlarga asoslanadi, me’yoriy hujjatlar ham shu asosda ishlab chiqiladi. Bosh qomusimizda jamiyat va davlat, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tuzilishi hamda faoliyatning asosiy prinsiplari, ularning vakolatlari fuqarolarning asosiy huquq, va burchlari, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar belbilab berilganligi bilan ham yanada ahamiyatlidir. Mamlakatimizda istiqomat qiluvchi turli din vakillari, yurtimiz musulmonlari Asosiy Qomusimizda belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklardan keng foydalanmoqdalar. Xususan, ushbu hujjatning yangi qabul qilingan tahririda vijdon hamda e’tiqod erkinligi alohida kafolatlab qo‘yilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31- moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari Bosh Qomusimiz belgilab bergan teng huquqlik va keng imkoniyatlardan foydalanib, totuvlik va hamjihatlikda yashamoqdalar. Ular ertangi kunga komil ishonch bilan mehnat qilib, yagona Vatan ravnaqiga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. Bunda nafaqat xalqchil tamoyillarga, balki ming yillar davomida rivojlanib kelgan milliy ma’naviyatimiz asoslariga ham tayanadi. Har bir millat vakillari o‘zining ruhiy-e’tiqodiy ildizlaridan uzilsa, inqirozga uchrashi tabiiydir. Allohga behisob shukrlar bo‘lsinki, sizni biz go‘zal va hur diyorda tinchlik bulog‘idan qonib umr guzarolik qilib yashab kelmoqdamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining go‘yasi, maqsadi, ruhi har bir qoidasi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, asrlar davomida shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik shuningdek, bir necha ming yillardan buyon avloddan avlodga meros bo‘lib kelayotgan o‘zbekona va sharkona davlatni idora etish va xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish an‘analarini o‘zida to‘la mujassamlashtirgan. Shavkat Mirziyoyev davlat va siyosat arbobi Uinston Cherrhillning quyidagi gapini iqtibos keltirdi: “Yaxshi bo‘lish uchun — o‘zgarish kerak, yaxshilarning yaxshisi bo‘lish uchun esa yanada ko‘proq o‘zgarish kerak”. Prezidentimiz “Hamamizni tarbiyalagan va voyaga yetkazgan shu xalq”. Barchamizga tuz - nasiba bergan ham -shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Biz birinchi kim bilan muloqot qilishimiz kerak – odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak – avvalo xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo‘ladi. Xalq rozi bo‘lsa, ishimizda unum va baraka bo‘ladi. Yangi O‘zbekiston Yangi Konstitutsiyasining qabul qilinishi milliy qadriyatlarimizni adolatli ijtimoiy jamiyat, inson qadir qimmatini va intellektual huquqlarini himoya qiladigan va qo‘llab quvvatlaydigan jamiyat qurish yo‘llarini belgilab beradi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 6 bo‘lim, 27 bob va 155 ta moddadan iborat. “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatchilik, ijtimoiy -siyosiy, ijtimoiy- iqtisodiy va sud- huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratdi”. Ushbu haqqoniy e’tirof O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 16- noyabrda imzolagan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishda alohida ta’kidlanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 1-moddasida davlat qurilishining yangi strategik maqsadi- suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish ekanligi qat’iy belgilandi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi. Inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlangani e’tiborga sazovordir. Bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e’tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilganini ishonch bilan ta’kidlashimiz mumkin. Yangi tahrirdagi yangi qonunning qabul qilinishi bilan bu borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy – huquqiy asos yaratildi. Shuni ta’kidlash joyizki Yangi O‘zbekiston o‘zining ushbu sohalaridagi xalqaro majburiyatlariga qat’iy sodiqligini yana bir bor namoyon etdi.

Bugun yurtimiz haqida fikr yuritilganda “Yangi O‘zbekiston” , Taraqqiyotning yangi bosqichiga kirib borayotgan mamlakat kabi sharafbaxsh iboralar ishlatilini kelmoqda. Bu qo‘lga kiritayotgan ulkan muvaffaqiyatlarimizning amaliy samarasi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Demak biz milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil harakatdamiz. Har bir yurtdoshimiz bugu mamlakatimizda barq urib turgan bebaho ne‘mat-tinchlik , totuvlik barqarorlikning qadriga yetib, Uchinchi Renessans davri poydevoriga g‘isht qo‘yish, ya‘ni yurtimiz taraqqiyotiga munosib xissa qo‘shish uchun astoydil harakat qilmog‘i lozim.

Yoshlarmiz Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari sifatida maydonga chiqayotgan bugungi kunda Konstitutsiyamizda yoshlarning huquq va manfaatlarini to‘la ta‘minlash maqsadida yoshlar sohasidagi davlat siyosati, o‘g‘il-qizlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalasi, ularning huquq va burchlari konstitutsiyaviy darajada o‘z aksini topishi kerak”. Bu fikrlar – xalqimizning amri va xohish-istaklariga, tez sur‘atga ega demokratik o‘zgarishlar ehtiyojlariga asoslangan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti konstitutsiyaviy islohotlarning boshidayoq belgilab bergan ayni sohadagi o‘zgarishlarning 9 ta ustuvor yo‘nalishidan biriga taalluqli. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat tomonidan yoshlar huquqlari himoyalanihi va ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtiroki rag‘batlantirilishi kafolatlab qo‘yildi. Konstitutsiyamizning 79-moddasi birinchi bandida qayd etilganidek: “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy,

iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta‘minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi”. Bosh qomusimizda, shuningdek, davlat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik tuyg‘ulari shakllanishiga g‘amxo‘rlik qilishi belgilandi. Bu haqida Konstitutsiyaning

78-moddasi to‘rtinchi bandida shunday deyilgan: “Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”.

Shuni aytish mumkinki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat yoshlarga g‘amxo‘rlik masalasida o‘z zimmasiga g‘oyat muhim majburiyatlarni olgani alohida diqqatni tortadi. Eng asosiysi, mazkur konstitutsiyaviy normalar nafaqat O‘zbekiston yoshlari manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Shunday ekan, navqiron avlodimiz vakillari tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz «Yoshlar Konstitutsiyasi» deya e‘tirof etilayotgani bejiz emas.

Bugun O‘zbekiston Respublikasi yangi taraqqiyot va muvaffaqiyatlar yo‘lidan dadil qadam tashlamoqda. Barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalambor xalq faravonligi, fuqarolarning munosib turmush tarzi va sharoitlarini ta‘minlashga qaratilgan. Konstitutsiyaning milliy huquq tizimidagi o‘rni va roli haqida ma‘lumot beruvchi tadbirlarni tashkil etish zarur. Bundan tashqari, o‘quvchilarning asosiy qonun O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqidagi bilimlarni kengaytirish, huquqiy savodxonligini oshirish juda muhim. Bilim xamma eshiklarning kalitidir, muvaffaqiyatning asosidir. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” tushunchasi ham xalqimiz tilida o‘ziga xos tarzda yangradi va yangicha dunyoqarash, fikrlash sari qadam tashlashga undamoqda. Prezidentimiz aytganlaridek, “Bugungi O‘zbekiston kechagi O‘zbekiston emas, bugungi xalqimiz kechagi xalq emas. Bugungi kunda yurtimizda keng ko‘lamli qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ko‘plab sohalarga e‘tibor qaratilmoqda. Yangi O‘zbekistonda e‘tibor qaratilayotgan muhim sohalardan biri ham aynan madaniyat va san‘at sohasidir. Prezidentimiz amalga oshirayotgan ishlarni nafaqat xalqimiz qo‘llab quvvatlamog‘da, balki dunyo hamjamiyati ham e‘tirof etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan san‘at sohasini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Inson tirik ekan kuy, qo‘shiqqa ko‘ngilga kayfiyat baxsh etuvchi san‘at durdonalariga ehtiyoj sezadi. Musiqa bilan oshno bo‘lgan insonning hayotiy qarashlari milliy urf-odat, qadriyatlarga hurmati baland bo‘ladi.

Madaniyat va san'at jamiyatning bebaho xazinasi, inson tafakkurining bemisil kashfiyotidir. Xulosa qilib shuni ayta olamizki, har tomonlama rivojlanib borayotgan dunyoda, yetakchi va ilg'or mamlakatlar qatoridan o'z o'rniga ega bo'lish uchun zamon ruhi bilan hamnafas bo'lgan, har jabhada mukkamal, ijtimoiy davlat qurishga asoslangan, oddiy xalq vakillarining muammolarini yechishga qodir bo'la oladigan qonun tizimi bo'lmog'i zarur. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangilangan tahriri o'zbek xalqi tomonidan referendumda tasdiqlandi. Yaratilgan Konstitutsiyamizda xalqimiz uchun bir qancha yengiliklar yaratildi. Inson qadr- qimmatini yuqori o'ringa ko'tarildi. Yangilangan Qomusimizda inson ilmiy salohiyati, o'z aqliy mehnat mahsulini himoyalay olish huquqiga ham ega bo'ldi. Shuni ayta olamizki, yangilangan Konstitutsiyamiz Muxtar Prezidentimiz Shavkat Mirommonovich Mirziyoyev aytganlaridek "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyilga asoslangan ijtimoiy davlat qurishining asosiy kalit bo'lib xizmat qiladi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. PF-4947-son. 2017 yil 7 fevral. Manba: lex.uz.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2016. -53 b. [Mirziyoyev Sh.M. Together we will build a free and prosperous, democratic state of Uzbekistan]. T.: O'zbekiston, 2016. -53 p.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz.
5. To'ychiyeva S. Madaniyat va san'atimiz rivojidagi zarsahifalar // Yangi O'zbekiston gazetasi, - Toshkent: 2022. B.6.
6. Haydarov A. Milliy madaniyat Renessans poydevori // Yangi O'zbekiston gazetasi, - Toshkent: 2020. -B.8.